PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOGNING KASBIY TARAQQIYOTI MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МОТИВАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Рустамова С.Ш., Эшмуродова Ш.О.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MOTIVATION OF THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF AN EDUCATOR IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Роль педагогов в воспитании будущих специалистов, обладающих всесторонними знаниями, глубоким образованием и высокой духовностью, несравнима. Профессиональное развитие учителя играет ведущую роль в достижении эффективности обучения. Поэтому крайне важно изучить психологические характеристики мотивации к профессиональному развитию учителя в педагогической деятельности.

Ключевые слова: *учитель, специалист, качественная мотивация, образование, профессиональное развитие, компонент, профессиональная идентичность, эмоциональная устойчивость, долг, креативность, ценностная ориентация, самоконтроль, убеждения, поведение.*

The role of educators in educating future specialists to be well-rounded and well-rounded, deeply educated, and highly spiritual is incomparable. The professional development of a teacher plays a leading role in achieving educational effectiveness. For this reason, it is extremely important to study the psychological characteristics of the motivation for the professional development of a teacher in pedagogical activity.

Key words: *teacher, specialist, qualitative motivation, education, professional development, component, professional identity, emotional stability, duty, creativity, value orientation, self-control, beliefs, behavior.*

Zamonaviy o'qituvchi malakali, mas'uliyatli, uzoq muddatli kasbiy faoliyatga tayyor bo'lishi kerak. Jamiyatning zamonaviy dinamik o'zgaruvchan sharoitlari bosqichida yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashga talablar qo'yish universitetning ta'lim muhitida amalga oshiriladi. Kasbiy rivojlanish bo'lajak o'qituvchi universitetning ta'lim maydonida o'zini o'zi anglash va rivojlantirishga yordam beradigan samarali sharoitlar yaratish orqali erishish mumkin.

Ta'limda sinergetik yondashuv asosida o'qituvchilarning axloqiy kompetentligini rivojlantirish yangi yo'nalishlardan biri hisoblanib? Bunda o'qituvchi shaxsining kompetentligi uning pedagog kado doirasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

L.I. Bamburova [2] tomonidan shaxsda musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar o'rganilgan bo'lib, quyidagi xuusiyatlar aniqlangan:

- ijod qilish va musiqa ijro etishga bo'lgan qiziqish;
- musiqadan zavqlanishga nisbatan ehtiyoj;
- musiqa asarlarini ijro etish uchun o'zi tashabbus ko'rsatishi;
- tinglovchilarda kayfiyatni ko'tarish ularga rohat berishi.

Albatta ushbu natijalar musiqa ijrochilik faoliyatining motivlarini to'liq qamrab olmagan.

M.B. Chijkova [12] tomonidan shifokorlik kasbini tanlash motivlari o'rganilgan bo'lib, olingan natijalar shifokorlik kasbini tanlashda birinchi kurs talabalari ushbu faoliyr bo'lib yetishishi davomida o'z-o'zidan tashkillanuvchi sistemalardan tashkil topishini nazarda tutadi.

Demak sinergetik yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash davomida muayyan sistema yoki tizimlarni tuzishni nazarda tutadi deb ikkilanmasdan ayta olamiz. Bu borada axloqiy kompetentlik jihatidan qaraydigan bo'lsak, o'qituvchining axloqiy jihatlarini sinergetik yondashuv asosida rivojlantirish esa pedagog kadrning axloqiy-madaniy kometentligini tizimlashtirilgan holda bosqichma-bosqich shakllantirib rivojlantirishni o'z ichigaoladi. O'qituvchi faoliyatining tuzilishi, mazmun va xususiyatlarini bilmasdan turib, uning kasbiy va shaxsiy sifatlarini maqsadga muvofiq shakllantirish mumkin emas. O'qituvchi faoliyatini o'rganishga bunday yondashuv metodologik jihatdan ham zarur. Pedagog kasbi va shaxsiga metodologik yondashish pedagogika faninig hozirgi taraqqiyot bosqichida faoliyat va shaxs tahlili nuqtayi nazaridan qarash zaruratini paydo qiladi. Pedagog shaxsining tarbiyaviy ta'siriga alohida urg'u berilgan bo'lib, pedagog kasbining mohiyati ta'lim-tarbiyaviy ta'sirlarni yaxlitlikda kasbi va shaxsi orqali amalga oshirishdir. Shuning uchun o'qituvchi kasbini faoliyat va shaxs nuqtayi nazardan tahlil qilish muhimdir.

Adabiyotlar taxlili. Kasbiy psixologiya fanida kasbiy motiv va motivasiya muammosi psixologlar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, hozirgi kunda ham ushbu muammat sohasining funktsional mazmuniga amal qilishlarini aytishga imkon beradi. Natijada, aynan shu funktsional maqsadni aks ettiruvchi motivlar - odamlarni davolash istagi va yaqinlarining salomatligiga e'tiborli bo'lish imkoniyati - kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan fazilatlar haqidagi g'oyalarini ochib beradi. Motivlarning mustahkamlanishi mexnat faoliyatida ishlovchilarining ko'pgina ehtiyojlarini qondirilishi yoki qondirilmaganligi darajasiga bog'liqdir. Ushbu masala bo'yicha g'arb psixologlaridan V. Wroom, E. Deci [14] kasbiy faoliyat motivatsiyasining tuzilishini ko'rsatib o'tganlar. Shaxsning o'z ishidan qoniqish hissi qanchalik kuchli bo'lsa, faoliyatni bajarishga nisbatan shunchalik yuqori intilish bo'ladi. Mehnat faoliyatida ularni o'z vaqtida rag'batlantirib borish, yanada samaraliroq ishlashlariga turtki bo'ladi.

B.N. Dadanov [4] tomonidan kasbiy faoliyat motivlari tuzilishi tavsifnomasi taklif qilgan bo'lib, olimning fikriga ko'ra istalgan faoliyatning sabablari quyidagi omillarni o'zida aks ettrishi mumkini:

Faoliyat jarayonini o'zidan rohat olish.

Faoliyatning to'g'ri natijalari (yaratilagn mahsulot o'zlashtirilayotgan bilim va xokazo).

Faoliyatning ijobiy natijalari.

Faoliyatdan qochish yoki faoliyat natijalari qoniqarsiz bo'lganda, jazolanishdan qo'rqish. Bunday vaziyatda faoliyatga nisbatan qiziqish yo'qolishi mumkin.

A.K. Baymetov [1] tomonidan pedagogik faoliyat motivlari tadqiq etilgan bo'lib, ulardan asosan uchtasi alohida ko'rsatilgan:

a) burch motivi;

b) o'qitiladigan fanlarlarning qiziqarliligi va e'tiborda bo'lish;

v) bolalar bilan muloqatda bo'lish;

N.V. Jurin [13] tomonidan pedagoglarning faoliyatidagi turli xil omillarga nisbatan munosabati o'rganilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra pedagoglarning ish joyidan, kasbidan oniqish darajasii ba'zi pedagoglarda birinchi navbatda maktabning moddiy ta'minotiga bog'liq, boshqalarida esa pedagogik faoliyat jarayonida yutuqlarga erishishi, uchinchilarida maktab raxbariyati bilan o'zaro munosabatlarga kirishish bo'lsa, to'rtinchisida esa maosh olish bilan bog'liq bo'lishi ko'rsatib berilgan.

A.A. Fayzullaev [9] amalga oshirgan tadqiqotlarida shaxsning motivatsion o'zini-o'zi boshqarishning turli-tuman omillari aniqlangan. Ushbu omillar motivatsion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga taalluqlidir. Shuningdek, motivatsion tuzilmalarning shaxs tomonidan ob'ektivlashtirish va o'z motivatsiyasini boshqarishdagi turli psixologik strategiya va usullari masalalari ham yaqqol ko'rsatib berilgan.

A.A. Fayzullaev [10] tomonidan motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilish taklif qilingan bo'lib, unga ko'ra motivatsion jarayon 5 ta bosqichga ajratilgan, ya'ni qo'zg'alishning anglanishi, motivning qabul qilinishi, motivning hayotga tadbiq qilinishni, motivning mustahkamlanishi, qo'zg'alishning faollashuvi.

R.Z. Gaynutdinovning [3] ishlarida o'qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizatsiyasi darajasi shaxsiy xossalari omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi mezonlarini ajratish mumkin. Ular quyidagicha ko'rsatilgan:

- shaxsiy-kasbiy komponentlikning o'ziga-o'zi nisbati;
- o'zini-o'zi dolzarblashga nisbatan intilish;
- emotsional barqarorlik va kasbiy muvofiqlik;
- o'ziga-o'zi hurmat va «Men» ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm yutuqlarga ehtiyoj ekstrovertlanganlik atrofdagilarning o'ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat daraja ekani).

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, fan rivojlanib, taraqqiy etishi davomida u yangi manbalar bilan boyishi shubhasizdir. Respublikamizda motiv va motivatsiya muammosi bo'yicha taniqli psixologlar ko'magida yosh olimlar tomonidan keng qo'lamda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Eksperimental tadqiqot natijalari taxlili. Ko'pgina faoliyat turlarida bo'lgani kabi, pedagogik faoliyat jarayonida ham pedagogning maqsadga, raqobatlashuvga, ijtimoiy obro'ga, pedagogik jamoada hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilishi, uning kasbiy taraqqiyotning motivatsiyasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Buni aniqlash maqsadida biz sinaluvchilarda shaxsdagi maqsadga, raqobatga va ijtimoyi mavqega intilish motivatsiyasini aniqlash uchun M. Kubishkinning [5] "MRI" so'rovnamasidan foydalandik. Olingan natijalarni qayta ishlash jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Sinaluvchilarda maqsadga, raqobatga va ijtimoyi mavqega intilish motivatsiyasi darajalari, %

Maqsadga intilish shkalasi	Raqobatga intilish shkalasi	Ijtimoiy mavqega intilish shkalasi
32	37	31

Sinaluvchilarda maqsadga, raqobatga va ijtimoyi mavqega intilish motivatsiyasi dinamikasi.

S.I. Ojegovning [8] "Rus tili lug'ati" kitobida yozilishicha, maqsad bu – nimagadir intilish, nimanidir amalga oshirishga intilishdir. SHuday qilib, predmet, ob'ekt hamda hatti – harakat ham maqsad bo'lib chiqishi mumkin [8]. A.N. Leontevning [7] ta'kidlashicha, motiv maqsad sari harakatlantiradi, bunda asosiy ehtiyoj predmetga egalik qilish emas, balki harakatni amalga oshirish (unga nisbatan qiziqishning uyg'onishi oqibati) undan roxat olishdir. Demak, bundan kelib chiqadiki maqsad faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ma'no va mazmun beradi. Amalga oshirilayotgan faoliyatdan mazmun topish shaxsni ushbu faoliyatni yanada muvaffaqiyatliroq bajarishiga, mutaxassis sifatida takomillashib borishiga yordam beradi.

Biz sinaluvchilarda o'tkazgan M. Kubishkinning "Shaxsdagi maqsadga, raqobatga va ijtimoyi mavqega intilish motivatsiyasini aniqlash" so'rovnomasi natijalariga ko'ra, "Maqsadga intilish" shkalasi bo'yicha 32% ko'rsatkich qayd etildi. Ushbu natijalarni taxlil qiladigan bo'lsak, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda maqsadning aniqligi, jarayondan mazmunan qoniqish his etish pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Har bir faoliyatni amalga oshirish kishidan aniq ko'zlangan maqsadni hamda uni amalga oshirilishida amal qilinishi kerak bo'lgan rejani, maqsadga samarali yo'l bilan yetishishda bir qator kasbiy va shaxsiy sifatlar, tajriba talab etiladi. Biz suhbatlashgan sinaluvchilarning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbining mashaqqatli va ma'suliyatli kasb bo'lishiga qaramay, ularda doimo aniq maqsad, o'z kasbidan qoniqish hissi, bolalarni sevishi, o'zi o'qitadigan predmetiga nisbatan cheksiz qiziqishi, o'zidagi bor bilim

va ko'nikmalarni har doim bolalarga yetkazish istagi mavjud, bularni ularning hayotiy mazmuniga aylangan.

Darxaqiqat, logoterapiya asoschisi Viktor Franklning [11] ta'kidlashicha, mazmunga intilish – odamlardagi birinchi motivatsion kuchdir. Mazmun qidirish o'zida ham ongli faoliyatni, ham ma'naviy ongsizlik bilan aloqa o'rnatishni aks ettiradi. Mazmunga erishish esa, inson mavjudligining muhim tavsifidir. Unga erishish uchun esa insondan iroda, ma'suliyat, javobgarlik hamda bir qator ijobiy sifatlar talab qilinadi. Ushbu sifatlar esa shaxsning kasbiy taraqqiyotiga yordam beradi.

Bundan tashqari, maqsadlar samaradorlikni rivojlantirish uchun ham muhim sanaladi. Maqsadlar odamlarni o'zlarining qobiliyatlarini baholash standartlari bilan ta'minlaydi. Maqsadlarga bosqichma – bosqich erishib borish esa, keyingi faoliyatga kirishishga turtki beradi. Samaradorlikka erishish mutaxassisga o'z kuchiga, qobiliyatiga nisbatan ishonch hissini paydo qiladi.

Ushbu metodikaning "Raqobatga intilish shkalasi" bo'yicha ko'rsatkich 37%ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich shundan dalolat beradiki, biz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishimiz bilan bir qatorda raqobatbardosh, jahon standartlariga javob beradigan mutaxassislarga talab o'sib bormoqda. Ushbu jarayon ta'lim tizimida ham aks etib, raqobatbardosh, jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash muhim masala hisoblanadi. Sinaluvchilar tomonidan qayd etilgan ushbu ko'rsatkich, kasbiy faoliyat jarayonida sog'lom raqobatga intilish, pedagogik jamoada va jamiyatda mustahkam o'z o'rniga ega bo'lish holatlarini ifodalaydi. Buning uchun esa albatta ular o'z ustida ishlab, kasbiy mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogga qo'yilayotgan talablarga mos bo'lishga harakat qilmoqdalar.

Bizga yaxshi ma'lumki, xar bir inson, jumladan pedagog shaxsi ham hamisha uni e'tirof etishlarini, mehnatiga yarasha rag'batlantirilishni, pedagogik jamoada va o'quvchilar orasida mehr – muhabbat, obro' – e'tibor topishni istaydi. Ushbu ehtiyojlarning qondirilib borilishi esa uni yanada faolroq bo'lishiga, o'z kasbiga nisbatan yanada ma'suliyat va mehr bilan yondoshishiga turtki bo'lib, kasbiy taraqqiyot motivatsiyasini kuchayishiga yordam beradi.

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarga murojaat qiladigan bo'lsak, F.S. Ismagilovaning [6] mutaxassislarning kasbiy tajribasi va uni bozor iqtisodiyoti shakllanish davrida boshqarishga bag'ishlangan dissertatsiyasida ko'rsatiladiki, kasbiy tajriba samaradorligi mezoni mutaxassisining raqobatbardoshligi sanaladi. Raqobatbardoshlilik mutaxassisning professional sifatida mehnat bozorida va tashkilotda uning ustunligi bosh talab qilinish darajasidir.

Psixologik rejada buni ish beruvchining mazmuniy maydoniga orientatsiyasi o'z professional zahiralari va imkoniyatlarini qadriyatlarning ish beruvchi uchun dolzarb reytingiga mos ravishda qayta baholashga tayyorgarlik sifatida talqin qilish mumkin. Sub'ektning o'z kasbiy tajribasiga munosabati tajribaning sub'ektning o'zi uchun shaxsiy ma'nosi va bu tajribaning mehnat bozorida real ahamiyatini farqlay olishga asoslanmog'i kerak deb yozadi muallif. SHunday qilib, F.Z. Ismagilova o'zini – o'zi anglash mutaxassisning o'ziga – o'zi munosabatining kasbiy tiklanishni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini isbotlangan.

Demak, faoliyat jarayonini musobaqa, raqobatlashish, o'zaro hamkorlik ko'rinishida olib borilishi, odamlar o'rtasida sog'lom raqobat tashkil qilish, odamlarni faol bo'lishga, faoliyatning qizg'in kechishiga, maqsad sari intilishning kuchayishiga hamda faoliyat natijasining samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Lekin, shuni alohida ta'kidlash zarurki, raqobatlashish insonlarining psixologik xususiyatlari ko'ra turlicha ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin. Masalan, psixologik tadqiqotlarini ko'rsatishicha, asab tizimi kuchli tiplar asab tizimi kuchsizlarga nisbatan raqobatlashish muhiti faoliyatga turtki beradi. Shuning uchun ham, jamoa rahbari xodimlarning psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda jamoada sog'lom psixologik muxit yaratishi, imkon qadar barchani o'z vaqtida rag'batlantirib borishi, hammani bir maqsad asosida birlashtira olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Metodikaning "Ijtimoyi mavqega intilish" shkalasiga ko'ra 31% ko'rsatkich aniqlandi. Amerikalik mashxur psixologlardan A. Maslou tomonidan ishlab chiqilgan motivatsiyalar piramidasiga nazar soladigan bo'lsak, insonda taaluqlilik va sevgiga ehtiyoj, ya'ni jamiyatga taaluqli bo'lish, odamlar bilan birga bo'lish, ular tomonidan qabul qilinish ehtiyojlari mavjuddir. Shuningdek, shaxsning hurmat – e'tiborga ega bo'lish, ma'qulanish, odamlar va jamiyat tomonidan tan olinish, muvaffaqiyatga erishish kabi ehtiyojlari mavjudki, ular shaxsning ijtimoiy mavqega intilishi motivatsiyasini izohlab beradi.

Jumladan, bizning sinaluvchilarimiz bo'lmish pedagoglarda ham ijtimoiy mavqega intilishi motivatsiyasi yetarli darajada ustunlik qilib, ular o'zlarining kasbiy faoliyatlari jarayonida pedagogik jamoa hamda o'quvchilar orasida o'z hurmatlari baland bo'lishni, ular tomonidan tan olinishni, doimiy ravishda muvaffaqiyatga erishib borishni istaydilar. Ular bilan o'tkazilgan suhbat, savol – javoblarni taxlil qiladigan bo'lsak, pedagoglar ijtimoiy mavqening davomli ravishda ko'tarilib va mustahkamlanib borishi ularning kasbiy faoliyatining samarali kechishida yetakchi ta'sir kuchiga ega ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, jamoada hamma xam bir xil hurmat – e'tiborga teng mavqega ega emas. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xar qanday ijtimoiy jamiyatda "mavqe uchun kurash" mavjud. Mavqe darajasi esa jamoa a'zolarining yoshiga, ma'lumotiga, jinsiga, madaniyati darajasiga, faoliyati xarakteriga, yo'nalganligiga va boshqalarga uzviy bog'liq. Ushbu nazariyaga muvofiq, mavqelarining teng emasligiga sabab jamoa a'zolaridagi o'zaro farqlar hisoblanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, odamlar ushbu farqlarni ko'radi va baholaydi, buninng asosida bir – birlari haqida tasavvurlar hosil qiladilar. SHunday ekan, odamni boshqalardan farqlovchi xar qanday tavsif uning ijtimoiy mavqeni belgilashi mumkin.

Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida mutaxassisning yuqori darajadagi intellekti, kasbiy maxorati va ilmiy yutuqlari yuqori mavqe uchun asos hisoblanadi. Biroq, bizning kuzatishlarimizga ko'ra esa, milliy xududimizda ayniqsa, o'qituvchilik kasbida

yuqori mavqelarni egallash uchun pedagogdan o'z fanining bilimdoni, maxoratli bo'lish bilan bir qatorda bolalarni sevish, ular bilan ijobiy hissiy aloqa o'rnata olish, perseptiv qobiliyat, psixologik diagnoz qo'ya olish qobiliyati, o'zining axloqi va ma'naviyati bilan boshqalarga o'rnak bo'la olish qobiliyati, pedagogik xayol, o'quvchilar hamda oila psixologiyasidan bilim va ko'nikmalari kabilar yuqori darajada rivojlangan bo'lishi zarurdir.

Yuqorida sanab o'tilgan pedagogning kasbiy taraqqiyotini, ijtimoiy mavqeni belgilab beruvchi xususiyatlar va qobiliyatlar bilan bir qatorda bizning sinaluvchilarimizda ham pedagogik faoliyat jarayonida yosh mutaxassislarga ish o'rgatish, jonkuyarlik, o'z tajribasi bilan o'rtoqlashish, ularning kamchilik va xatolarini bartaraf etishda yordam berish, o'zlarining ta'lim – tarbiya borasidagi yangi g'oyalari bilan doimiy ravishda gazeta va ilmiy jurnallarda maqolalar nashr qildirib borishlari, yangi pedagogik texnalogiyalar asosida dars ishlanmalari yaratib kelayotganlari, barcha sohada ildam bo'lib namuna ko'rsatayotganlari ularning pedagogok jamoada hamda o'quvchilar oldida ijtimoiy mavqeni o'sishiga yordam bermoqda.

Pedagoglarning darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishlari, o'z ustilarida tinimsiz ishlab, izlanib, ijod qilishlari ijtimoiy mavqelarini qay darajada oshirib va mutahkamlab borayotganlarini isbotlaydi.

Demak, shaxsdagi ijtimoiy mavqega intilish motivatsiyasi qanchalik mustaxkam bo'lsa, u faoliyat jarayonida o'z ustida yanada ko'proq ishlab, kasbiy maxoratini oshirishga, faoliyat jarayonida yuqori samaraga erishishga intiladi. Jamiyatda va jamoada shaxs qanchalik yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lsa, bu uning keyingi faoliyati jarayonida, kelajakda yanada faolroq bo'lishiga, o'zini – o'zi takomillashtirib borishida, yutuqlarga erishishida doimo ichki va tashqi hozirlikka ega bo'lishida motivatsion rol o'ynaydi.

Chunki, shaxsdagi o'zidan qoniqish, o'ziga va kelajagiga ishonch hissi, maqsad sari doimo intilib borishi, o'zining kerak ekanligi hissining mavjudligi va ijtimoiy mavqega ega bo'lish, jamiyat tomonidan tan olinishi, hurmat va mehrga ega bo'lishi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjuddir.

Jumladan, biz o'tkazgan korrelyatsion tadqiqot natijalariga ko'ra ham (2 jalval), pedagoglarning o'z kasbidan qoniqanligi va "maqsadga intilish" 0,191, "raqobatga intilish" 0,24 hamda "ijtimoiy mavqega intilish" 0,647 shkalalari ko'rsatkichlari o'rtasida korrelyatsion koeffitsent darajalari bo'yicha o'zaro aloqadorlik aniqlandi. Ushbu korrelyatsion koeffitsent darajalari bo'yicha o'zaro bog'liqlik shundan dalolat beradiki, sinaluvchilarimiz bo'lmish pedagoglar o'z faoliyatlari jarayonida qanchalik o'zlari oldilariga qo'yilgan maqsadga erisha olsalar, ish joyida sog'lom raqobat muhiti tashkil qilinsa hamda o'z mehnatlariga yarasha rag'batlantirib borilsalar, ularning mashaqatli mehnatlari e'tirof etib borilsa, ma'lum bir ijtimoiy mavqeni egalasalar o'z kasblari va ishlaridan qoniqish, psixologik ko'tarinkilik, o'z kuchlariga va kelajaklariga ishonch hosil qilar ekanlar.

1. Bular esa o'z navbatida ularning kasbiy faoliyatlari jarayonida yanada maqsad sari intilishlarini, xar sohada faol bo'lishlarini, o'z ustilarida izlanib, mutaxassis sifatida takomillashib borishlarini, o'z kasblaridan to'laqonli qoniqishlarini, kasbiy taraqqiyotlarini ta'minlaydi (2-jadva).

2-jadval

Psixodiagnostik test shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish koeffitsentlari

Korrelyatsiya qilinayotgan ko'rsatkichlar	"Shaxsdagi maqsadga, raqobatga va ijtimoyi mavqega intilish motivatsiyasini aniqlash" so'rovnomasi shkalalari		
	Maqsadga intilish shkalasi	Raqobatga intilish shkalasi	Ijtimoiy mavqega intilish shkalasi
Pedagogning o'z kasbi va ishidan qoniqganligi darajalari	N=100 r=0,191 p<0,1	N=100 r=0,24 p<0,1 p<0,5	N=100 R=0,647 p<0,01
Maqsadli qadriyatlar	N=100 r=0,192 p<0,1	N=100 r=0,23 P<0,1 p<0,5	N=100 R=0,643 p<0,01
Vositali qadriyatlar	N=100 r=0,191 p<0,1	N=100 r=0,25 P<0,1 p<0,5	N=100 R=0,641 p<0,01

Xulosa

1. Pedagoglarda kasbiy taraqqiyot motivatsiyasini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar qilindi:

2. Psixologik-pedagogik adabiyotlarning taxlili bo'yicha, xorij psixologlari o'z ishlarida asosiy e'tiborni kasbiy motivatsiyaning tarkibiy tuzilmalari, shaxsning kasbga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarning shakllanganlik darajasi hamda tashqi omillar bilan bog'liqligiga qaratganlar .

3. O'zbekiston psixologlari tomonidan o'quv motivi va motivatsiya muammosi, kasbiy motivatsiya masalasi borasida ishlar olib borilgan, natijalar bo'yicha shax-

sning o'zini o'zi boshqarish tizimi bilan bog'liqligi, o'quv motivatsiyani turli yosh davrlarida namoyon bo'lishining psixologik qonuniyatlari hamda shaxsdagi burch, hissiy – irodaviy jabhalar bilan bog'liqligi yoritib berilgan.

4. Rossiyalik psixologlar tadqiqot ishlarida kasbiy faoliyat motivatsiyasining tuzilishi ko'rsatilgan. Natijalarga ko'ra mutaxassisning o'z ishidan qoniqish darajasi qancha yuqori bo'lsa, faoliyatni yanada samaraliroq bajarishga harakati yanada yuqori bo'lishi aniqlangan. Ular tomonidan ishsizlarning motivatsion jabhasi, pedagoglarning pedagogik faoliyati motivlari, pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida bilimga bo'lgan ehtiyojlari masalasi, pedagogik faoliyatga ta'sir qiluvchi omillar tadqiq etilib, ilmiy va amaliy xulosalar keltirilgan.

5. Aniqlovchi tajribalar natijasida, pedagoglarning o'z kasbi va ishidan qoniganlik darajasi yuqori namoyon bo'ldi. O'z ishi va kasbidan qoniqmaganligini ma'lum qilgan sinaluvchilar aksariyati yosh, endigina o'z pedagogik faoliyatini boshlagan bo'lib, ulardagi yangi ish joyiga, pedagogik jamoaga moslashishdagi, kasbiy faoliyat qiyinchiliklar, o'quvchilarning ko'ngliga yo'l topa olishdagi ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi.

6. Kasbiy bilim, tajriba, maxoratning yuqoriligi mutaxassisining raqobatbardoshligi omili sanaladi. Raqobatbardoshlilik mutaxassisning mehnat bozorida va muassasada uning ustunligini ta'minlaydi.

7. Pedagog jamiyatda va jamoada qanchalik yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lsa, yanada faolroq bo'lishiga, o'zini – o'zi takomillashtirib borishida, yutuqlarga erishishiga doimo ravishda ichki va tashqi hozirlikka ega bo'lishida motivatsion ahamiyatga egadir

8. Qadriyatlar mutaxassisning kasbiy taraqqiyoti jarayonida muhim ahamiyatga ega omillardan hisoblanib, qadriyatlar shaxsni ichki olamini – tashqi olam hamda u amalga oshiradigan faoliyat jarayoni bilan uzviy bog'lab, uni qay darajada kechishini ko'rsatadi.

9. Faoliyatning samarali kechishi shaxsning qadriyatlari olamida qay bir qadriyat ustun darajada rivojlanganligiga bevosita bog'liqdir. Qadriyatlar faoliyatni amalga oshirish hamda xulq – atvorni boshqaruvchisi rolida namoyon bo'ladi.

10. Shakllantiruvchi mashg'ulotlar natijasida sinaluvchilarning o'z kasbidan, olib borayotgan faoliyatidan qoniqganligi hissini ortishi, o'ziga – o'zi va o'z imkoniyatlari, qobiliyatlariga beradigan bahoning o'sishi, jamoadagi sog'lom raqobat, maqsadga erishish motivatsiyasining mustahkamlanishi, kasbiy zaruriy bilim va ko'nikmalarning rivojlanishi kabilar ularda mutaxassis sifatida yanada rivojlanib borishiga zamin yaratdi.

Tavsiya

Mazkur ilmiy tadqiqot ishimizning yakunlari bo'yicha, pedagoglarda kasbiy taraqqiyot motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

1. O'qituvchilarda etuk mutaxassis sifatida rivojlanish motivatsiyasini oshirish uchun ularda maqsadga erishishga intiluvchanlik, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan ishonch hissini, kommunikativlik, mobillik pedagogsh kasbi uchun muxim bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar tashkil qilish kerak.

2. Pedagogoning kasbiy taraqqiyotida pedagogik va o'quvchilar jamoasida obro', hurmatga ega bo'lish, shaxsning tan olinishi, muvaffaqiyatlarga erishishi muhim sanaladi. Bu borada turli tanlovlar, bilimlar belashuvi, musobaqalar o'tkazish hamda g'oliblarni munosib taqdirlab borish zarur.

3. Qobiliyatli, maxoratli, ilmiy salohiyatli pedagoglarning ish uslublarini, yutuqlarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish, yosh pedagogolar bilan ustoz – shogird ishlarini mustahkamlash muhim.

4. Yosh pedagogolarni ruhan qo'llab – quvvatlash, tajriba almashish uchun psixologik yordam, maslahat ishlarini keng yo'lga qo'yish zarur.

5. Pedagogik jamoada sog'lom raqobatni hamda ijobiy psixologik iqlimni yaratish muhim. Pedagoglarning jismonan va psixologik salomatligiga e'tibor qaratish, bu borada zaruriy ishlarni amalga oshirish, ularning o'z kasbidan, faoliyatidan qoniqish hissini mustaxkamlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

2. Байметов АК. Некоторые типологически обусловленные особенности индивидуального стиля учебной деятельности педагогов. Психология стилей человека. Пермь Москва Книжный мир 2013:160-176.

3. Бамбурова ЛИ. Мотивация совместной музыкальной деятельности ёношских групп. Психология воспитания в начальном коллективе. Ярославль Кострома КГПИ 1985:12.

4. Гайнутддинов РЗ. Психология личности учителя узбекской национальной школы и ее формирование и система дошкольного образования. Автореф дис д-ра психол наук. СПб 1992:37.

5. Додонов БИ. Структура и динамика развития мотива. Вопр психол. 1084;4:127-128.

6. Ильин ЕП. Мотивация и мотивы. СПб 2002:415-417.

7. Исмагилова ФС. Профессиональный опыт специалистов в области управления и условий рыночной экономической формации. Автореф дис д-ра психол наук. М 2000:41.

8. Леонтьев АН. Необходимость, мотив, эмоция. М МГУ 1971:238.

9. Ожегов СИ, Шведова НЮ. Толковый словарь русского языка. М Азбуковник 1997:2040.

10. Файзуллаев АА. Мотивационная саморегуляция личности. Ташкент 1987.

11. Файзуллаев АА. Принятие мотива личности. Психол журн. 1985;4.

12. Франкл ВЭ. О смысле жизни. Альпина Диджитал 2019:12.

13. Чижкова МБ. Мотивы выбора профессий врача и іх взаимосвязь с профессионально-значимыми качествами медицинского ботника у студентов-первокурсников медицинского вуза. Соврем пробл науки и образования. 2015;2(1). URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=21057 (данные обращения: 03.02.2024).

14. Юрин НВ. Удовлетворенность учителей физической культуры своей профессиональной деятельностью. Автореф дис психол наук. Л 1991:16.

15. Wroom V, Deci E. An overview of work motivation. Readings in industrial and organizational psychology. NY 1972.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOGNING KASBIY TARAQQIYOTI MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rustamova S.Sh., Eshmurodova Sh.O.

Bo'lajak mutaxassislarni xar tomonlama yetuk va barkamol, chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda pedagoglarning o'rni beqiyos. Ta'lim samaradorligiga erishishda pedagogning kasbiy taraqqiyoti yetakchi o'rin tutadi. SHu sababdan xam pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini o'rganish g'oyat dolzarbdir.

Kalit so'zlar: *pedagog, mutaxassis, kabiy motivatsiya, ta'lim, kasbiy taraqqiyot, komponent, kasbiy identiklik, emotsional barqarorlik, burch, ijod, qadriyatlar orientatsiyasi, o'z-o'zini nazorat qilish, e'tiqod, xulq.*

Mualliflar haqida ma'lumot

Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna, TDTU o'zbek va xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi. Tel: +998977306979, e-mail: surayyo.6979@gmail.com, https://orcid.org/0009-0009-3460-9539

Eshmurodova Shirin Oybek qizi, TDTU o'zbek va xorijiy tillar kafedrasi assistenti. Tel: +998977306979, e-mail: saipovashirin118@gmail.com